

O'zbekiston Prezidenti Serbiya Respublikasi ordeni bilan taqdirlandi

2026 8 Sentabr


Belgrad shahridagi tadbirlar doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Serbiyaning oliy davlat mukofoti – Katta zanjirli Serbiya Respublikasi ordeni bilan taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.



Mamlakatlar o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarini mustahkamlashga qo'shgan ulkan hissasi uchun davlatimiz rahbariga ushbu ordenni Serbiya Prezidenti Aleksandr Vuchich topshirdi.



Davlatimiz rahbari yuksak mukofot uchun chuqur minnatdorlik bildirib, uni Serbiya xalqining O'zbekistonga bo'lgan yuksak hurmati, mustahkamlanib borayotgan do'stlik va ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirishga qat'iy intilish ramzi deb bilishini ta'kidladi.



Serbiya Respublikasi ordeni xorijiy davlatlarning taniqli arboblariга xalqlar o'rtasida tinchlik, hamkorlik va o'zaro anglashuvni mustahkamlash hamda respublika bilan do'stona aloqalarni rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissasi uchun beriladi.



